

U.TOMAS VA F.ZNANETSKIYNING “POLYAK DEHQONI YEVROPADA VA AMERIKADA” ASARI**Abdullayeva Mahliyo Damin qizi**

O'zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti Sotsiologiya yo'nalishi 1- kurs talabasi.

e-mail: abdullayevamahliyo793@gmail.com**Xusanova Xayriniso Tayirovna**

Ilmiy rahbar: “Sotsiologiya” kafedrasida dotsenti, sotsiologiya doktori (PhD).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15293868>

Annotatsiya. Bu asarda mualliflar Polsha dehqonlarining AQShga migratsiya jarayonini va bu jarayon davomida ularning ijtimoiy hayoti, qadriyatlarini, madaniyati va shaxsiy tajribalari qanday o'zgarishini tahlil qiladilar. Ular bu orqali migratsiya faqat geografik emas, balki ijtimoiy va madaniy transformatsiya ekanligini isbotlaydilar.

Kitob sotsiologik metod sifatida shaxsiy hujjatlar — xatlar, kundaliklar, avtobiografiyalar va boshqa hayotiy hujjatlarga tayanadi. Bu usul orqali oddiy insonning boshidan kechirgan hayotiy tajribalari orqali yirik sotsiologik tushunchalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Polshalik dehqonlar, avtobiografiya, xat, filistayn, bogemian, kreativ.

“ПОЛЬСКИЙ КРЕСТЬЯНИН В ЕВРОПЕ И АМЕРИКЕ” У.ТОМАС И Ф.ЗНАНЕСКОГО

Аннотация. В этом труде авторы исследуют процесс миграции польских крестьян в США и анализируют, как в ходе этого процесса изменяется их социальная жизнь, ценности, культура и личный опыт. Исследование доказывает, что миграция — это не только географическое перемещение, но и социально-культурная трансформация.

Книга основана на личных документах — письмах, дневниках, автобиографиях и других жизненных свидетельствах. Такой подход позволяет через индивидуальный опыт простого человека выявить важные социологические закономерности.

Ключевые слова: Польские крестьяне, автобиография, письмо, филистимлянин, богемный, креатив.

“THE POLISH PEASANT IN EUROPE AND AMERICA BY” W.THOMAS AND F.ZNANESKY

Abstract. In this study, the authors examine the migration of Polish peasants to the United States and analyze how their social lives, values, culture, and personal experiences change in the process. The research demonstrates that migration is not just a geographical relocation, but also a social and cultural transformation.

The book is based on personal documents—letters, diaries, autobiographies, and other life records. Through this method, the authors draw broad sociological insights from the individual experiences of ordinary people.

Keywords: Polish peasants, autobiography, letter, philistine, bohemian, creative.

Empirik sotsiologiya sohasidagi e'tiborli ishlardan birinchi navbatda Chikago maktabi vakili U.Tomas va F.Znanetskiyning «Polyak dehqoni yevropa va Amerikada» asari sotsiologik tadqiqotidir.

Uilyam Ayzek Tomas (1863-1947) - Chikago universiteti sotsiologiya professori (1900-1918), sotsiologiyada psixologizm vakili, sotsiologiya fanining ilk ilmiy jurnali “American Journal of Sociology”ning redaktori (1895-1917), shuningdek, Chikago maktabining asoschisi hisoblanadi.

U.Tomasning F.Znanetskiy bilan birgalikda yozgan 5 jildlik “Polyak dehqoni yevropa va Amerikada” (1918-1920) nomli kitobida individual va guruh maqsad va qadriyatlar tahliliga asosiy e'tibor qaratilgan. Individ tomonidan vaziyatning aniqlanishi guruh qadriyatlari bilan mos kelmasa, kapitalistik jamiyatni ko'pgina kasalliklarga duchor etuvchi ziddiyat va ijtimoiy dezintegratsiya yuzaga keladi deyiladi. U.Tomas tomonidan shakllantirilgan holatni aniqlash teoremasi quyidagicha: “Insonlar holatni real deb baholar ekan, ular o'z oqibatlariga ko'ra ham realdir”.

Sotsiologik tadqiqotlar texnikasi rivojida U.Tomas tomonidan ilgari surilgan usul, ya'ni inson faktorini o'rganishda shaxsiy hujjatlar (xat, kundalik, avtobiografiya, xotiralar va h.)dan foydalanish usuli sotsiologiya va sotsial psixologiya fanlarida muhim ahamiyat kasb etdi.

Florian Znanetskiy (1882-1958) sotsiologiyani sotsial tashkilotlar to'g'risidagi fan sifatida baholaydi. Unga ko'ra, sotsiologiya nafaqat guruhning alohida a'zolari o'rtasidagi, balki uning har bir a'zosi va umuman, butun bir guruh tarkibidagi o'zaro munosabatlarni ham belgilab beruvchi xulq-atvor qoidalarini o'rganishidir. Sotsial tashkilotning asosini sotsial institutlar tashkil etadi. Jamiyatning o'zgarishi atrof-muhit bilan O'zaro ta'sirlashuv natijasi sifatida talqin etiladi. Jamiyat muhitga moslashish natijasida o'zgaradi, insonlar esa — jamiyatga. U.Tomas va F.Znanetskiyning «Polyak dehqoni yevropa va Amerikada» kitobi empirik sotsiologiyaga tamal toshini qo'ygan asar sifatida mutaxassislar tomonidan empirik sotsiologiyaning xrestomatik, klassik asari deb ta'riflanadi. Buning sabablari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1.Asar asosiga tadqiqot predmeti sifatida olingan aniq va lokal muammo qo'yilgan. Bu yerda, polshalik dehqonlarning XX asr boshida AQShga emigratsiyasi haqida, o'z mamlakatida qolgan va yangi yashash joyiga ko'chib o'tgan polshalik dehqonlarning qiyosiy tavsifi (tahlili) haqida gap bormoqda.

2. Empirik aniq-sotsiologik tadqiqot usullaridan foydalanishga asosiy urg'u berilgan. Ular orasida eng muhimi - shaxsiy hujjatlarni o'rganish usuli bo'lib chiqdi.

3. Asar mualliflarining vujudga keluvchi ijtimoiy jarayonlarni, optimallashtirishga qaratilgan xulosa va yakunlarining amaliy tusda ekanligi bilan ajralib turadi: ayrim ijtimoiy umumiyliklarning yangi hayot sharoitlariga moslashuvi, ko'rsatib o'tilgan hodisalar munosabati bilan, nizolarni yengib o'tish (yoki ularga yo'l qo'ymaslik) shular jumlasidan.

Znanetskiy va Tomas tadqiqotining predmeti Amerikaga ko'chib o'tgan, turmushning yangi shakllari (adaptatsiya) oldida turb qolgan polyak dehqonlarining oilalari edi. Tadqiqotda 8 ta asosiy muammo ajratiladi:

- 1) sotsial tashkilot turi va individualizmni muvofiqlashtirish muammosi;
- 2) individual va sotsial faollik muammosi;
- 3) "anormallik" muammosi;
- 4) kasb muammosi;
- 5) jinslararo o'zaro munosabatlar muammosi;
- 6) sotsial baxt muammosi;
- 7) irq va madaniyatlar kurashi muammosi;
- 8) madaniy hayotni optimal tashkillashtirish muammosi.

Qo'yilgan barcha masalalar empirik jihatdan o'rganildi. Masalan, besh jildli kitobning ikki jildi hech qanday izohlarsiz 28 ta polyak oilasining yozishmalaridan iborat. Bu yozishmalarning birlamchi tahlili o'ziga xos tarzda amalga oshirilgan. Masalan, bir guruhga er-xotinlarning yozishmalari, ikkinchisiga boshqa oilaga turmushga chiqib ketgan qizlarning yozishmalari ajratilgan. Shuningdek, urf-odatlar, axborotlar, his-tuyg'ular, adabiy, ishbilarmon va h.k. guruhlar ajratilgan. Tadqiqotda 8 mingta hujjatdan foydalaniladi.

Mualliflar tomonidan berilgan ikkinchi tadqiqot usuli avtobiografiyalarni o'rganish metodidir. Uchinchi jild Amerikaga ko'chib ketgan Lyubotinlik Vladik Vishnevskiy degan insonning avtobiografiyasi asosiga qurilgan. Florian Znanetskiy va Uilyam Tomaslar ijtimoiy hayot shart-sharoitlari o'zgarishining insonning qarashlari o'zgarishiga ta'sirini kuzatishga harakat qilganlar.

Tadqiqotda keltirilgan shaxsiy hujjatlar konkret insonlarning motivatsiyasi dinamikasini ko'rishda ishonarlilikni oshiradi. Olingan ma'lumotlar "sotsial xulq-atvorning barqaror namunasi" ning universal tipologiyasini qurishga yordam berdi.

Znanetskiy va Tomaslar sotsial xarakterning uchta turini ajratib ko'rsatdilar.

Birinchisi - "filistayn" - barqarorlikka yo'nalgan, an'anaviy vaziyatlamini xush ko'ruvchi, konformist va tashqi muhitda o'zgarishlarga aktiv qarshilik ko'rsatuvchi insonlar turi.

Ikkinchisi — “bogemian” - kutilmagan reaksiya vo xulq-atvorlami namoyon etuvchi, yangi sharoitlarga tez vo oson moslanuvchi insonlar turi.

Oxirgi tur - “kreativ” - aktiv faoliyat yurituvchi, xilma-xillikka moyil va maqsadga intiluvchan insonlar turi.

Bu asar XX asming boshlari uchun yangilik edi. Konkret faktlarga asoslangan sifatli xarakter kasb etuvchi materiallardan qurilgani uchun u sotsiologiyada yangi soʻz sifatida qabul qilindi.

“Polyak dehqoni yevropada va Amerikada” kitobida qadriyat va yoʻl-yoʻriqlar sotsiologik kategoriya va empirik instrumentariyalarga xos maʼnoga ega boʻlgan asar hisoblanadi. Ikkala muallifning taʼkidlashlaricha, Italiyada spirtli ichimliklar sotish doʻkonlari koʻp boʻlgan, ammo u yerda ichkilikbozlik darajasi spirtli ichimliklar bilan savdo qilishga qatʼiy chegaralar qoʻyilgan AQSh dagiga nisbatan yuqori boʻlmagan; ogʻir moddiy sharoitlarda kun koʻradigan oilalar polyak dehqonlari jamoasida koʻp uchragan, qulay moddiy va yashash sharoitlarida yashaydigan polyak aristokratiyasi orasida, aksincha, oilalarning barham topishi oddiy holga aylangandi.

Znanetskiy va Tomas tomonidan toʻplangan hujjatli manbalarning koʻrsatishicha, polyak dehqonlarini iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatga koʻchirilishi ular doirasida axloqiy muhitning yaxshilanishiga olib kelmadi.

Moslashuv (adaptatsiya) davrida - aksincha, axloqning yomonlashuvi va oilaviy aloqalarning susayishi koʻzga tashlangan. «Polyak dehqoni yevropada va Amerikada» kitobining mualliflari fikricha, kishilar hayotining moddiy sharoitlari bilan ular tomonidan axloqiy meʼyorlarga amal qilish oʻrtasida bevosita bogʻliqlik mavjud emas.[1]

Bu asar orqali sotsiologiyada tadqiqotlar oʻtkazishning yangi turi qoʻllanilib, unda zamon va makon bilan cheklanmagan juda koʻp dalillar oʻrganilgan. Shunga koʻra, tadqiqotlar oʻtkazishda tekshirishning maxsus tartibi va texnikasi ham qoʻllanila boshladi: kuzatish, intervyu, anketa tarqatish va modellashtirish, toʻplangan materiallarni statistic jihatdan ishlash, diagramma, grafiklar tuzish kabilar.[2]

Xulosa qilib aytganda, “Polyak dehqoni Yevropada va Amerikada” asari madaniy sotsiologiya, muhojirlik tadqiqotlari va etnografiya sohalarining rivojlanishiga kata hissa qoʻshgan. Bu asar sotsiologiya tarixidagi muhim ilmiy meroslardan biridir. Asar migratsiyaning shaxsiyat va jamiyatga boʻlgan taʼsirini real hayotiy hujjatlar asosida chuqur tahlil qilgan.

Mualliflar Polsha dehqonlarining yangi jamiyatga moslashuvini, qadriyatlar tizimidagi oʻzgarisharni va madaniy transformatsiyalarni tasvirlab, migratsiyani murakkab ijtimoiy jarayon sifatida ochib berganlar.

REFERENCES

1. Sotsiologiya tarixi Toshkent “Innovatsiya- ziyo” 2020
2. G.SH.Jiyanmuratova
3. O‘zbekiston Milliy univertiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti, “Sotsiologiya” kafedrası “Sotsiologiya ” nomli darslk. Toshkent: “VNESHNVESTPROM” -2023.
4. <https://uz. Wikipedia.org>
5. Jiyanmuratova Gulnoz Sherbutayevna Sotsiologiya tarixi
6. Darslik / - Toshkent: “Innovatsiya –ziyo ”